



## “QIZIL KITOB” TARIXI VA TAXLILI

*Tohirov Muhammadjon Bahrom o‘g‘li*

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti*

*Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo‘nalishi*

*2- bosqich 201 - guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muhofazaga muhtoj turlarni ro’yxatga oluvchi “Qizil kitob”, uning tashkil etilish sabablari, tashkil etishning qisqacha tarixi keltirilgan. Shu jumladan “O’zbekiston Respublikasi Qizil kitobi” ning tashkil etilishi va nashr qilinishi, shu qatorida kitobga kiritilgan turlar son hamda kitobning navbatdagi nashrida keltirilgan ma’lumotlar bilan tanishasiz.

**Аннотация:** В данной статье представлена «Красная книга», в которой перечислены виды, нуждающиеся в охране, причины ее создания, а также краткая история ее создания. В том числе организация и издание «Красной книги Республики Узбекистан», количество видов, включенных в книгу, и информация, представленная в очередном издании книги.

**Annotation:** This article presents the "Red Book", which lists species in need of protection, the reasons for its establishment, and a brief history of its establishment. Including the organization and publication of the "Red Book of the Republic of Uzbekistan", the number of species included in the book and the information presented in the next edition of the book.

**Kalit so’zlar:** Qizil kitob, Fontenblo, TRAI, Piter Shkott, hayvonot va nabotot, SSSR, XTMQI, Chinor ENK.

**Ключевые слова:** Красная книга, Фонтенбло, TRAI, Питер Шкотт, животный и растительный мир, СССР, HTMQI, Cynar ENK.

**Key words:** Red Book, Fontainebleau, TRAI, Peter Schcott, animal and plant life, USSR, HTMQI, Cynar ENK.

Yer yuzida kamayib borayotgan va yo’qolish arafasida turgan turlar sonining tobora ortib borayotganligi tez fursatda hal qilinishi kerak bo’lgan dolzarb muammolardan biriga aylanib ulgurgandi. Shu sababli muhofazaga muhtoj turlarni ro’yxatini tuzish, ular haqidagi to’plangan barcha ma’lumotlarni bir yerga jamlash, shu asosida ushbu turlarni muhofaza qilish va asrab qolish borasida dunyo hamjamiyati dasturiy manbaaga muhtoj edi. Shu as’noda o’simlik va hayvonlar “Qizil kitob”ini tashlik etish g’oyasi olg’a surildi. Garchi inson faktorining tabiatga



ta'siri tobora ortib borayotgan bo'lsa-da, «Qizil kitob» hayvonot va nabotot turlarini saqlashda katta o'rin egallashi ko'zda tutilgandi.

1948-yilda Fransianing Fontenblo shahrida o'tkazilgan xalqaro konferensiyada tabiatni va tabiiy resurslarini asrash xalqaro ittifoqi (TRAI) tashkil etildi. TRAI oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri yo'qolib ketish arafasida bo'lgan, inson yordamiga muhtoj va qutqarib qolish choralarini ko'rish shart bo'lgan hayvonot va o'simlik turlarini aniqlash bo'lgan.

Shu maqsadda 1949-yilda yo'qolayotgan turlarni asrab qolish qo'mitasi xizmati tashkil etildi. Qo'mita a'zolari turli mamlakatlarning taniqli zoolog olimlaridan tashkil topgandi. Bu qo'mitaga tabiatni asrash bo'yicha eng obro'li mutaxassislardan biri angliyalik olim Piter Skott rahbarlik qildi. Qo'mita ulkan ishlarni amalga oshirdi. Uning maqsadi dunyodagi noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonot turlari ro'yxatini tuzish va nima sababdan bunday holat yuzaga kelganini aniqlash edi. Qizil rang – xavf belgisi, shu sababli Piter Skottning taklifi bilan ro'yxat maqullangan tarzda "Qizil kitob" deb nomlandi.

Qizil kitobning ilk ko'rinishini tayyorlash uchun 14 yillik izlanish talab qilindi. U 1963-yilda ikki tomli kitob ko'rinishda ilk bor nashr etildi. Har bir hayvonot turi uchun alohida sahifa ajratildi va unda qisqa shaklda ayni vaqtdagi va o'tmishdagi yashash tarzi, holati, umumiy soni, himoya qilish bo'yicha qabul qilingan va qilinishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar, tutqinda bo'lgan hayvonlar sanog'i va ko'payishi bilan bog'liq ma'lumotlar kiritilgan. Yo'qolib borayotgan eng noyob hayvon turlari esa qizil sahfalarda chop etildi.

Qizil kitobning ikkinchi nashri uch tomdan iborat bo'lib, 1966-1971-yillarda nashrdan chiqarildi.

**O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi** — O'zbekiston hududidagi o'simlik va hayvonot dunyosining eng noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlarining izohli ro'yxatini, shuningdek tarqalishi to'g'risidagi umumlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan rasmiy davlat hujjati hisoblanadi. Ushbu turlarning hozirgi holati populyasiyaning qisqarishiga olib keladi va ularni saqlash va ko'paytirish choralarini ko'rmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan o'simlik va hayvon turlari butun respublika hududida alohida muhofaza qilinadi.

Maskur kitoblatga kiritilgan turlarga Tabiatni muhofaza qilish xalqaro uyshmasi tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga binoan kamyoblik darajasiga ko'ra 4 ta maqomga bo'lingan.



0. **Yo'qolgan yoki yo'qolib ketishi ehtimoldan yiroq emas.** Bir necha yillar davomida tabiatda uchramagan turlar.

1. **Yo'qolib ketish arafasida turgan.** Yo'qolib ketish xavfi ostida, saqlab qolish uchun maxsus muhofazani talab etadigan turlar.

2. **Kamyob.** Ma'lum kichik maydonlardagi o'ziga xos sharoitlarda saqlanib qolgan, ammo tez yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan va juda jiddiy nazoratni talab etuvchi turlar.

3. **Son jihatdan kamayib borayotgan.** Soni va tarqalgan maydonlari ma'lum vaqt ichida tabiiy sabablariga ko'ra yoki inson omili ta'sirida kamayib ketayotgan turlar.

O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi I jildida o'simliklar olamining kamyob, yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlari to'g'risidagi ma'lumotlar jamlangan bo'lib, unda har bir turning qisqacha tavsifi, tarqalishi, o'sish sharoiti, soni, ko'payishi, arealining o'zgarishi sabablari, madaniylashtirilishi va muhofaza choralari ko'rsatilgan.

Qizil kitobning II jildida hayvonot olamining kamyob, yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlari to'g'risidagi ma'lumotlar jamlangan bo'lib, unda har bir turning maqomi, qisqacha tavsifi, tarqalishi, yashash tarzi, soni va arealning o'zgarish sabablari, muhofazasi va ko'paytirish chora-tadbirlari keltirilgan.

Ushbu kitoblar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlari xodimlari, biolog olimlar, hayvonot va nabotot olami bilan qiziquvchilar, jumladan keng jamoatchilik ommasining foysalanishi uchun mo'ljallangan.

“O'zbekiston Qizil kitobi”ni nashr etish to'g'risidagi qarot SSSR respublikasi tomonidan 1979-yilda qabul qilingan va dastlabki kitobi 1984-yilda nashr etilgan. Unga noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan umurtqali hayvonlarning 63 turi va o'simliklarning 163 turi kiritilgan.

“O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi”ning 1993-yildagi birinchi nashriga 301 o'simlik turi kiritilgan bo'lib, u o'zbek va rus tillarida nashr etilgan. Kitobda har bir turning o'zbek, rus va lotin tillarida nomlari berilgan, areallarning qisqarishi, sonining kamayish sabablari, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan, shuningdek, turlarning tarqalish xaritalari va tasvirlari ifodalangan.

2003-yilda Qizil kitobning ikkinchi nashri chop etildi. 2006-yilda uchinchi nashri, 2010-yilda esa kitobning to'rtinchi nashri chop etildi. Unga 184 turdag'i hayvonlar kiritilgan. Ulardan 77 turini umurtqasiz hayvonlar (halqali qurtlarning 3 ta turi, mollyuskalarning 14 turi, qo'shoyoqlarning 61 turi), 18 turdag'i baliqlar, 16



turdagi sudralib yuruvchilar, 48 turdagи qushlar va 25 turdagи sutemizuvchilar tashkil etadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Qizil kitobiga 1983-yil Qizil kitobga kiritilgan sut emizuvchilar va qushlarning ayrim turlari kiritilmagan. Ularning ayrimlari respublika hududida hozirgi vaqtda ancha barqaror songa ega (qunduz, cho‘l chumchug‘i), boshqa turlari esa hozir ko‘chmanchilar (kichik oqqush, bahaybat tungi ko‘rshapalak turi, qizil bo‘ri) yoki ularning faunada mavjudligi hisoblanadi. O‘zbekistonning manul, Tyan-Shan tog‘ qo‘ylari yetarlicha o‘rganilmagan. Kitobda, shuningdek, O‘zbekistonda yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lмаган, ammo XTMQI (Xalqaro Tabiatni muhofaza qilish ittifoqi) Qizil ro‘yxatga kiritilgan turlar ham mavjud.

2019-yil 6-dekabrda esa O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika institutida “O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi”ning navbatdagi nashri taqdimoti **bo‘lib o‘tdi**. Ushbu kitob “Chinor ENK” nashriyoti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat Ekologiya qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi (FA) hamkorligida tayyorlangan.

Kitob ikki jilda nashr qilinyapti, unda o‘simlik va hayvonlarning kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida qolgan turlari haqida asosiy ma’lumotlar berilgan. Birinchi jild O‘zbekistondagi nabotot olami, ikkinchi jild esa hayvonot olami haqidagi ma’lumotlarni qamrab olgan.

“Qizil kitob”ga O‘zbekistondagi nodir va yo‘qolib ketish xavfi ostida qolgan, himoyaga muhtoj 314 o‘simlik turi kiritilgan. Uning avvalgi nashrida (2009 yil) bunday o‘simlik va zamburug‘lar soni 324 ta deb keltirilgan edi.

Yangi nashrda o‘n yil avvalgisidan kamroq o‘simlik nomi keltirilganining sababini FA Botanika Instituti olimlari shunday izohladı: o‘tgan vaqt davomida olib borilgan o‘rganishlar davomida eski ro‘yxatdagi ba’zi o‘simliklar o‘zi aslida O‘zbekiston hududida uchramasligi, ba’zilari O‘zbekiston hududida kamyob bo‘lgani bilan qo‘shni Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonda keng tarqalgani, yana ayrim turlar esa kamyob bo‘lmay katta mintaqalarda uchrashi yuzaga chiqqan.

Yangi nashrda butunlay yo‘qolib ketgan o‘simlik turlari soni 19 tadan 10 taga kamaygan. Ayni paytda, unga 15 ta kamyob o‘simlik turi qo‘shilgan, avvalgi nashr bilan taqqoslaganda 157 ta o‘simlik turining maqomi o‘zgargan.

“Qizil kitob”ning yangi nashri 2-jildiga sutemizuvchi hayvonlarning 30 turi, qushlarning 52 turi, sudralib yuruvchilarning 21 turi, baliqlarning 17 turi, 3 turi chuvalchang, 14 turdagи mollyuska, bo‘g‘imoyoqlilarning 66 turi kiritilgan.

Taqqoslash uchun avvalgi, 2009 yilda nashr etilgan “Qizil kitob”dagi hayvonlarga doir ma’lumotlarga qarasak: unga sutemizuvchilarning 24 turi, sudralib



yuruvchilarning 16 turi, baliqlarning 17 turi, 3 turi chuvalchang, 14 turi mollyuska, bo‘g‘imoyoqlilarning 60 turi kiritilgan edi.

### Adabiyotlar

- O‘zbekiston SSR Qizil kitobi: Hayvon va o‘simpliklarning noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlari: 2 jildda.- Toshkent: Fan, 1983.- V. 1: Umurtqalilar. - 128 b.
- O‘zbekiston SSR Qizil kitobi: Noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan hayvon va o‘simpliklar turlari: 2 jildda.- Toshkent: Fan, 1984.- V. 2: O‘simpliklar. - 151 b.
- O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi: Noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan o‘simplik va hayvonlar turlari: 2 jildda.- Toshkent: Chinor ENK, 1998.- 1-jild: O‘simpliklar. - 336 b.
- O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi: Noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan o‘simplik va hayvonlar turlari: 2 jildda.- Toshkent: Chinor ENK, 2003.- 2-tom: Hayvonlar. - 238 b.
- O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi: Noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan o‘simplik va hayvonlar turlari: 2 jildda – 2-nashr. - Toshkent: Chinor ENK, 2006. - V. 1: O‘simpliklar va qo‘ziqorinlar. - 336 b.
- O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi: Noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan o‘simplik va hayvonlar turlari: 2 jildda – 2-nashr. - Toshkent: Chinor ENK, 2006. - V. 2: Hayvonlar. - 216 p.
- O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi: Noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan o‘simplik va hayvonlar turlari: 2 jildda – 3-nashr. - Toshkent: Chinor ENK, 2009. - V. 1: O‘simpliklar va qo‘ziqorinlar. - 356 b.
- O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi: Noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan o‘simplik va hayvonlar turlari: 2 jildda – 3-nashr. - Toshkent: Chinor ENK, 2009. - V. 2: Hayvonlar. - 217 b